


**“Navoiy Universitetidan – maktab
uchun” turkumidan**

**Zulxumor MIRZAYEVA,
Komil JALILOV,
Saodat QAMBAROVA**

ADABIYOT




**O'rta ta'lim muassasalarining II-sinfi va o'rta maxsus
ta'lim muassasalarining 2-bosqichi uchun
o'quv qo'llanma**

“Navoiy Universitetidan – maktab uchun” turkumidan

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov, Saodat Qambarova

ADABIYOT

O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va
o‘rta maxsus ta’lim muassasalarining 2-bosqichi
uchun o‘quv qo‘llanma



Toshkent 2018

Mas'ul muharrir

Baxtiyor Nazarov – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi akademigi

Taqrizchilar

Safo Matchonov – Jizzax davlat pedagogika instituti professori, pedagogika fanlari doktori

Adiba Madinova – Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani 44-umumiy o'rta maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Mazkur qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf va o'rta maxsus ta'lim muassasalarining (akademik litseylarning) 2-bosqich o'quvchilari, o'qituvchilar va adabiyot ixlosmandlari uchun mo'ljallangan. Unga o'quv dasturida belgilangan badiiy asarlar kiritilgan va Davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan kompetensiyalarni rivojlantirishga urg'u berilgan. Kitobda Britaniya, AQSH, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarning adabiy ta'limidagi ilg'or tajribalarga tayanildi va badiiy asar tahlilidagi yangicha yondashuvlar ilk marotaba kitobxonlarga taqdim etildi.

Mazkur qo'llanma o'quvchini badiiy so'zning sehrli olamiga olib kirishda, adabiyotga qiziqtirishda va adabiyot darslarini mazmunli tashkil qilishda muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Barcha huquqlar himoya qilingan. Mualliflarning yozma ruxsatisiz ko'paytirish, tarqatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqlanadi.

ADABIYOT O'QITUVCHILARIGA

Aziz hamkasblar!

Qo'lingizdagi umumta'lim maktablarining 11-sinfi va akademik litseylarning 2-bosqichi uchun "Adabiyot" fanidan o'quv qo'llanma Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining bir guruh jamoasi tomonidan tayyorlandi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2016 yilning 13 maydagi farmoniga asosan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tashkil etilgan edi. Universitet faolitatini yo'lga qo'yish jarayonlarida rahbarlik qilgan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev yangi jamoa oldiga o'zbek tili va adabiyoti o'qitish metodikasini tubdan yangilash, milliy metodikani jahon standartlari asosida qayta isloh qilish vazifasini qo'yan edilar. Bugungacha ta'limdagi islohotlarni yanada chuqulashtirish maqsadida davlatimiz rahbarining yana ko'plab farmon va qarorlari e'lon qilindi va mazkur qaraorlar yuzasidan qator vazifalarni belgilab berdi. Mana shunday vazifalardan biri o'rta ta'limda ishlatiladigan o'quv adabiyotlarini tubdan yangilash va ularni jahon standartlariga moslashtirish vazifasidir.

Qo'lingizdagi qo'llanma loyihasi Prezidentimiz qarolarining amaldagi ijrosini ta'minlash - adabiyot o'qitishning sinovdan o'tgan ilg'or xorijiy metodikalarini ta'limga olib kirishga urinishidagi ilk qadamdir.

Qo'llanma loyihasini tayyorlashdan oldin biz, mualliflar jamoasi, AQSh, Buyuk Britaniya, Ukraina va Rossiya kabi eng rivojlangan mamlakatlarning adabiy ta'lim va darsliklar yaratish metodikasini, ularda mavjud adabiyot darsliklaridagi umumiy va o'ziga xos xususiyatlarni jiddiy o'rganib chiqdik. O'rganish natijasida biz o'rgangan davlatlarda "retseptiv estetika" ("kitobxon javobi nazariyasi") va uning asosidagi tranzaksiya nazariyasi adabiyot o'qitishda asosiy tamoyil sifatida qabul qilinganligi ma'lum bo'ldi. Bu tamoyil asosida kitobxon - asar dialogi yotadi. Bu tamoyilga ko'ra, har bir kitobxon asarni o'qishda o'z ma'nolarini yaratadi va adabiyot o'qitish asosida o'quvchi-kitobxonda asardan "ma'no yaratish" uchun kerakli kompetensiyalarni shakllantirish yotadi. Adabiyot saboqlariga "adiblar va asarlar haqidagi ma'lumotlar fani" sifatida qarash yoki kimningdir asar haqidagi fikrini bolaga singdirish emas, balki asarni tahlil qildirish orqali o'quvchida mustaqil fikrlashni, estetik didni rivojlantirish darslari sifatida qaraladi. Bu maqsadga o'quvchiga badiiy matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni kerakli o'rinlarda berib, ularni qo'llashga o'rgatish, adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasini ta'minlash hamda oq'ilayotgan asarni hayot bilan bog'lash orqali erishiladi.

Yuqoridagi, maqsaddan kelib chiqqan holda, qo'lingizdagi qo'llanma bugungacha mavjud, amalda qo'llanilayotgan darsliklardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

I. Muayyan badiiy matn tahlilining uch bosqichli yondashuviga amal qilindi.

Birinchi bosqich “o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi bo‘lib, bundan asosiy maqsad:

- o‘qiladigan asarni tushunishga yordam beradigan kontekstni faollashtirish;
- o‘quvchida asarni o‘qishga ishtiyoq uyg‘otish.

Shu maqsaddan kelib chiqib har bir asardan oldin “o‘qishga tayyorlanamiz” bo‘limida tarix, geografiya, tabiiy fanlardan asarni tushunish uchun kerakli bilimlar berildi yoki o‘quvchiga eslatildi hamda ular asosida savollar va topshiriqlar shakllantirildi. Shuningdek, ko‘p asarlarda asarni o‘qishga kirishishdan oldin asarni diqqat bilan o‘qishga undaydigan topshiriqlar (masalan, jadval to‘ldirish, kalit so‘zlarni yozib borish) berildi – bu topshiriqlar asarni ziyraklik bilan o‘qishga, asarning muhim joylariga e‘tibor berishga undaydi. Bunday topshiriqlarga asarni o‘qib bo‘lgandan keyin qaytib muhokama qilinsa, ularning samaradorligi yanada ortadi. O‘qishdan oldingi topshiriqlar o‘quvchini asar mohiyatiga olib kirish uchun muhim. Shuni inobatga olib bunday topshiriqlarni sinfda bajarishni maslahat beramiz.

Ikkinchi bosqichda badiiy asar tahlilida quyidagi maqsadlarga qaratiladi:

- asar matnini, syujetini tushunib borish;
- asardagi muhim o‘rinlarga e‘tibor qaratish; asarning ma‘no qatlamlarini kashf qilish.

Asarni o‘qish davomida beriladigan savollarni (kitobda ular hoshiyaga chiqarilgan yoki she‘riy matn ichida ajratib berilgan) asosan asarning “yozilmagan” qismlariga (yashirin ma‘nolariga) yo‘naltirishga harakat qilindi, chunki aynan ular ustida mushohada yuritish asarni yaxshiroq tushushga yordam beradi. Ko‘p o‘rinlarda kitobga kiritilgan illyustratsiyalardan ham ma‘lum bir ta‘limiy maqsad ko‘zlangan va ular asosida ham savollar berilgan.

O‘qish davomida bajariladigan topshiriqlarni asarning o‘quvchi uchun qiyinchilik darajasidan va mavzularga ajratilgan soatlar taqsimotidan kelib chiqib sinfda yoki sinfdan tashqarida bajarishi mumkin. Agar bunday topshiriqlar sinfda bajarilsa “to‘xtab o‘qish” metodidan foydalanish mumkin: o‘quvchilarga savolgacha bo‘lgan matnni o‘qib olishga yetarli (masalan, 10 minut) vaqt beriladi, o‘quvchilar matnni o‘zlari (ovoz chiqarmasdan) o‘qiydilar, so‘ng o‘quvchilar o‘qishdan to‘xtatiladi va savol muhokama qilinib olinadi va keyingi savolgacha bo‘lgan matn qismi o‘qishga beriladi. Agar bunday topshiriqlar uyga vazifa qilib berilsa, keyingi darsni boshlashdan oldin o‘quvchilarning savollarga javoblarini muhokama qilib olish lozim.

Kitobda faktologik (kim? nima? qachon? qayerda? singari), faqat xotirani mustahkamlashga qaratilgan yoki asar syujetini qayta hikoyalab berishni talab qiladigan savollarga imkon darajasida murojaat qilinmadi.

“Mutolaadan so‘ng” deb nomlangan **uchinchi bosqichda** badiiy matnni “yuqoridan” (makro darajada) tahlil qilish, asarga nisbatan o‘z munosabatini shakllantirish, nazariy tushunchalarni mustahkamlash, asarni hayot bilan bog‘lash, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini

rivojlantirishga qaratildi. Shu maqsaddan kelib chiqib topshiriqlar bir qancha guruhlarga bo‘lindi.

1. *Asar tahliliga* qaratilgan savollar guruhi.

2. *Adabiy-nazariy tushunchalarni* matn bog‘lab tushuntirishga qaratilgan savollar.

3. Asarning *multimediya talqini* (muayyan badiiy matnning kino, audio, multfilm variantlari) bilan qiyoslab o‘rganishga qaratilgan savollar. Bunday topshiriqlarda multimediya varianti asar matni o‘rnini bosmasligi kerak va bu talqinlarni ko‘rish yoki eshitish asar matnini o‘qib chiqqandan keyin amalga oshishi kerak. Shuni inobatga olib, ko‘p hollarda savollar shunday tuzildiku, ularga javob berish uchun har ikkala variant (matn va multimediya) bilan tanishish lozim.

4. *“Hayot bilan bog‘laymiz”* turkum topshiriqlari. Bundan asosiy maqsad o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish.

5. *“Ijod qilamiz”* topshirig‘i. Bunday topshiriqdan maqsad o‘quvchini yangi narsa yaratishga (hikoya, insho, annotatsiya, kinossenariy va hokazo yozish, rasm chizish, sahna ko‘rinishi yaratish va hokazo) undash orqali yozma nutqni va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdir.

Kitobda berilgan savol va topshiriqlar (asosan katta janrlarda) badiiy asarning biror bir parchasiga emas, balki butun bir asarni mohiyatini qamrab olishga qaratilgan. Savollarga javob berish uchun o‘quvchidan butun bir asarni o‘qish talab etiladi, chunki yirik hajmli asarlar bilan ishlashda (“Kecha va kunduz”, “Ruhlar isyoni” va hokazo) shunchaki asardan bir parcha berib, keyin asar haqida darslik muallifi tahlilini o‘qish yoki adabiyot o‘qituvchisining fikrini eshitish orqali asarni tushunishga erishib bo‘lmaydi. Shuni inobatga olib, imkoni bor o‘rinlarda o‘quvchi uchun tushunilishi qiyinroq bo‘lgan asarlar (masalan, “Abulfayzxon”, “Ruhlar isyoni”, “Jannat o‘zi qaydadir”) matni to‘liq keltirildi, bunda hoshiyalardagi ma’lumotlar, savollar orqali asarni tushunishga yordam berishga harakat qilindi. O‘qituvchi berilgan dars soatlari ichida barcha topshiriqlarga ulgurmasa, o‘quvchilarni guruhlab, topshiriqlarni taqsimlab berishi mumkin.

II. Qo‘llanma maqsadidan kelib chiqqan holda, “asar haqida” bo‘limidan voz kechildi.

Biz o‘rganib chiqqan xorij darsliklarida bunday bo‘lim mavjud emas. Sababi – adabiyot o‘qitishdan maqsad, yuqorida aytilganiday, o‘quvchiga asar haqida kimningdir fikrini singdirish emas. Yoki asarni hamma bir xil tushunishiga erishish ham emas. Haqiqiy badiiy asar qiymati aynan uning har xil o‘quvchiga har xil ta’sir qilishi, turfa fikrlar uyg‘ota olishida hamdir. Shunday ekan, savollar va topshiriqlar orqali o‘quvchida asar haqida o‘z tushunhasini shakllantirishga yordam berish maqsad qilindi va darsliklarimizda an’anaviy bo‘lib qolgan “asar haqida” bo‘limidan voz kechishga qaror qilindi.

Umumiy o‘rta ta’lim uchun tasdiqlangan adabiyot fani dasturida har bir asar bo‘yicha e’tibor berilishi lozim bo‘lgan xususiyatlar ko‘rsatilgan. An’anaviy darsliklarda odatda

“asar haqida” bo‘limi orqali bu xususiyatlar o‘quvchiga tayyor qilib “chaynab” beriladi. Qo‘lingizagi kitobda savol va topshiriqlar orqali o‘quvchida asarning shu xususiyatlari haqida mustaqil tushuncha shakllantirishga harakat qilindi. Masalan, dasturga kiritilgan “Abulfazxon” dramasiidagi asosiy qahramonlar talqini mavzusi dramadagi obrazlarni tahlil qilishga qaratilgan savollar orqali, Chexovning hikoyachilikda o‘ziga xos mahorati mavzusi Chexov hikoyalariidagi detallarni tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar orqali ochib berildi.

III. Adiblar haqidagi ma’lumotlar iloji boricha qisqartirildi.

Yuqorida ta’kidlanganiday, adabiyot darsi – adiblar va ularning asarlari haqidagi ma’lumotlar darsi emas. O‘quvchini adibning ota-onasi, tog‘asi-yu amakisi kim bo‘lib ishlagani, adibning o‘zi umri davomida nechta kitob yozgani, bu kitoblarni qachon va qayerda chop etgani, yoki umri davomida qanday lavozimlarda ishlagani qiziqirmaydi. Agar qiziqirsa, hozirgi axborot asrida bunday ma’lumotlarni bosma yoki internet manbalaridan izlab topish muammo tug‘dirmaydi. Shuning uchun adiblar haqida ma’lumotlar iloji boricha qisqartirilib, umumiyashtirilib, adib haqida va uning o‘rganiladigan asari haqida yetarlicha tasavvur shakllantirish maqsad qilindi.

IV. Har bir davr so‘ngida “takrorlash” darslari berildi.

11 sinf majburiy ta’limning oxiri ekanligini hisobga olib, adabiyot bo‘yicha majburiy ta’limda olingan bilimlarni umumlashtirish maqsadida har bir davr so‘ngida “takrorlash” darslari kiritildi. Bu darslardan maqsad – davr adabiyoti bo‘yicha umumiy xulosalarni shakllantirishga, asarlarni mustaqil tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam berish. Shu bilan birga, maktabdagi adabiyot darslari adabiyot tarixi kursi emasligi, o‘quvchilarning darajasi va salohiyati ham hisobga olindi.

V. “Mustaqil o‘qiyimiz” ruknlari kiritildi.

O‘quv dasturida mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasiga soatlar ajratilganini hisobga olib, o‘qituvchiga bu dars soatlarini samarali tashkil qilishga yordam berish maqsadida, kitobga “mustaqil o‘qiyimiz” ruknlari kiritildi. Bu ruknlarda o‘zbek va jahob adabiyotining eng sara va shu bilan birga, qaysidir xususiyatlari bilan o‘rganilayotgan mavzularga bog‘liq asarlari o‘qishga tavsiya qilindi. Bunda mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasiga ajratilgan darslardan bir necha hafta oldin o‘qituvchi o‘quvchilardan tavsiya qilingan asarlardan birini tanlashni so‘rashi va tanlangan asarga qarab o‘quvchilarni guruhlarga ajratishi mumkin. O‘quvchilar mustaqil ravishda asarlarni o‘qiydilar va keyin darsda asar asosida guruh bo‘lib taqdimot qiladilar. Umid qilamizki, bunday yondashuv darslarni yanada samaraliroq tashkil qilinishga, shuningdek, o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Umid qilamizki, qo‘lingizdagi kitob Siz aziz hamkasblar va o‘quvchilaringiz uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetidan munosib tuhfa bo‘ladi hamda adabiyot darslaringizni qiziqarli tashkil qilib, bolani so‘z san’atining sehrlilari olamiga olib kirishingizda yordam bera oladi.

Milliy adabiyot ta’limiga xorijiy yondashuvni olib kirishdagi ilk tajriba sifatida kitobda kamchiliklar bo‘lishi tabiiy. Mualliflar jamoasi ularni to‘g‘rilashga, mazkur kitobning keyingi nashrlari va “Navoiy Universitetidan – maktab uchun” turkumidan taqdim qilinishi rejalashtirilayotgan keyingi kitoblar sifatini oshirishga qaratilgan har qanday asoslangan fikrlarni qabul qilishga tayyor. Asosiy maqsad – adabiyot darslari orqali mustaqil fikrlay oladigan, hayotda o‘z o‘rnini topa oladigan, o‘zi tanlagan sohada innovatsiyalar olib kirib Vatan ravnaqiga hissa qo‘sha oladigan avlodni shakllantirishga hissa qo‘shish.

MUNDARIJA

Xalq ogʻzaki ijodi: “Goʻroʻgʻli” dostonlari turkumi	10
“Goʻroʻgʻlining tugʻilishi” dostonidan	13
Qadimgi turkiy adabiyot va XI-XIV asrlar adabiyoti	22
Yusuf Xos Hojib	24
“Qutadgʻu bilig”	25
Nosiruddin Rabgʻuziy	30
“Qisasi Rabgʻuziy”	30
Mahmud Koshgʻariy	40
“Devoni lugʻotit turk”	40
Takrorlaymiz ...	49
Mustaqil oʻqiymiz ...	50
Mumtoz oʻzbek adabiyoti	52
Alisher Navoiy	54
“Layli va Majnun”	57
Zahiriddin Muhammad Bobur	82
Bobur gʻazallari	84
Mumtoz adabiyot namunalarini mustaqil tahlil qilishni oʻrganamiz ...	90
Takrorlaymiz ...	94
Mustaqil oʻqiymiz ...	95
XX asr oʻzbek adabiyoti	99
Abdurauf Fitrat	104
“Abulfayzxon”	109
Ijod qilamiz ...	149
Abdulhamid Sulaymon oʻgʻli Choʻlpon	150
“Kecha va kunduz”	153
Ijod qilamiz ...	169
Erkin Vohidov	170
“Ruhlar isyoni”	176
Adabiyot nazariyasi: Barmoq vazni	257
Sheʼrlar	258
Ijod qilamiz ...	265

Rauf Parfi	266
“Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon”	268
Mustaqil mutolaa uchun	271
Takrorlaymiz ...	276
Mustaqil o‘qiymiz ...	278
Adabiyot va san‘atdagi asosiy oqimlar: sentimentalizm, romantizm, realizm, modernizm	280
Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti	286
Faxriyor	290
She‘rlar	290
Nazar Eshonqul	297
“Maymun yetaklagan odam”	299
Adabiyot nazariyasi: detal, mif, ramz	310
Erkin A‘zam	311
“Jannat o‘zi qaydadir yoxud Jiydalidan chiqqan Jo‘raqul”	313
Jahon adabiyoti vakillari	
Anton Chexov	360
“Xameleon”	362
“G‘ilof bandasi”	369
“Garov”	383
Umumlashtiramiz ...	391
Ijod qilamiz ...	392
Rashod Nuri Guntekin	393
“Choliqushi”	395
Mustaqil o‘qiymiz ...	430



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/3508> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3508> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3508>